

PRODYUSERLIK FAOLIYATINING IJTIMOYIY-MADANIY FUNKSIYALARI (TIZIMLI FUNKSIONAL YONDASHUV)

<https://doi.org/10.6871/zenodo.17831476>

Todjidinov Umid Todjidinovich

utodjidinov@gmail.com

*O'zDSMI, "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada prodyuserlik faoliyatining ijtimoiy-madaniy funksiyalari tizimli-funksional yondashuv asosida tahlil etilgan. Unda prodyuserlikning badiiy-ijodiy, tashkiliy, moliyaviy, ideologik hamda tarbiyaviy vazifalari ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Turli olimlar — M.S. Kagan, A. Atanesyan, A.G. Zanko, T.N. Parsadanova va boshqalarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, prodyuserlikning san'at, iqtisodiyot, huquq va falsafadagi o'rni, shuningdek, uning inson faoliyati va madaniy taraqqiyotdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar

prodyuserlik faoliyati, tizimli-funksional yondashuv, ijtimoiy-madaniy jarayon, ijodiy boshqaruv, madaniy taraqqiyot.

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ФУНКЦИИ ПРОДЮСЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (СИСТЕМНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД)

Тоджидинов Умид Тоджидинович

utodjidinov@gmail.com

*Старший преподаватель кафедры «Менеджмент культуры и искусства»
Государственного института искусств и культуры Узбекистана*

Аннотация

В статье анализируются социально-культурные функции продюсерской деятельности на основе системно-функционального подхода. Рассматриваются художественно-творческие, организационные, финансовые, идеологические и воспитательные функции продюсерской деятельности в контексте их взаимосвязи с социально-культурными процессами. Проанализированы научные взгляды таких исследователей, как М.С. Каган,

А. Атанесян, А.Г. Занко, Т.Н. Парсаданова и других. Раскрыто место продюсерской деятельности в сфере искусства, экономики, права и философии, а также её значение в человеческой деятельности и культурном развитии общества.

Ключевые слова

продюсерская деятельность, системно-функциональный подход, социально-культурный процесс, творческое управление, культурное развитие.

SOCIO-CULTURAL FUNCTIONS OF PRODUCING ACTIVITY (SYSTEM-FUNCTIONAL APPROACH)

Todjidinov Umid Todjidinovich

utodjidinov@gmail.com

Senior Lecturer, Department of "Culture and Art Management"

Uzbek State Institute of Arts and Culture

Abstract

The article analyzes the socio-cultural functions of producing activity based on a system-functional approach. It examines the artistic-creative, organizational, financial, ideological, and educational functions of producing within the context of their interrelation with socio-cultural processes. The scientific views of scholars such as M.S. Kagan, A. Atanesyan, A.G. Zanko, T.N. Parsadanova, and others are reviewed. The study reveals the place of producing in the fields of art, economics, law, and philosophy, as well as its significance in human activity and the cultural development of society.

Keywords

producing activity, system-functional approach, socio-cultural process, creative management, cultural development.

Ijtimoiy voqeliklarning keng integrasiyaga moyilligi, murakkabligi va ilg'ash qiyinligi ularni ichki tizimlarini yoki funksiyalari aniqlashdan boshlanadi. Falsafiy-gnoseologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, tadqiqot obekti qancha keng va murakkab bo'lsa, uning ichki qismlari yoki funksiyalariga tizimli yondashish shunchalik zarurdir. Madaniyatshunos, falsafa fanlari doktori, professor M.S.Kagan inson faoliyati, uning ijtimoiy-madaniy borliq bilan aloqalari malum bir tizimi (sistema) sifatida qaralganida rasional va obektiv anglanishi mumkin. Tizimlilik inson faoliyatiga anglanganlik, rasionallik, shakllanish bosqichlari va harakat dinamizmini tushunish imkoni beradi. Inson faoliyatidan, ayniqsa ijtimoiy-

madaniy borliqqa munosabatlarida irrasionallik, xaotizm, eklektizm uchrab turadi, shuning uchun ularning xususiyatlarini ochib berish tizimli-funksional yondashuv orqali amalga oshirilishi zarur, deb hisoblaydi. Inson makrokosmning bir qismi, u aloxida obekt sifatida ushbu makrokosm bilan dialektik uygunlikda mavjud bo'lishi, o'zi faoliyati va funksiyalari amalga oshirishi mumkin. Demak, Makrokosm (ijtimoiy-madaniy borliq, galaktika, global dunyo, metagalaktika) va mikrokosm (inson, shaxs, individ) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, ular mohiyatini anglash tizimli funksional yondashuv orqali amalga oshirilishi darkor.

Ushbu ilmiy metodologik xulosani ijtimoiy-madaniy faoliyat turi bo'lgan prodyuserlik faoliyatiga ham tadbiq etish mumkin. Prodyuserlik faoliyatining butun ijtimoiy-madaniy borliq bilan uzviy bog'liqligi, ushbu borliqdagi badiiy, ijodiy, tashkiliy, moliyaviy va huquqiy jarayonlarning prodyuserlik faoliyatida mujassam bo'lishi uni murakkab ijtimoiy voqelikka aylantiradi. Bundan tashqari, prodyuserlik faoliyatining immanent xususiyatlarini, falsafiy-ekzistensial mohiyatini anglash uchun uning funksiyalari bilish lozim. Buni esa ilm-fanda tan olingan va keng qo'llaniladigan tizimli funksional yondashuv orqali amalga oshirish mumkin.

Tizimli funksional yondashuv tarafdorlari obektning funksiyalari nimalariga qarab, qaysi parametrlari va jihatlari asosiy belgi qilib olinishi haqida bahslashadilar. Bazi mutaxassislar obektning ijtimoiy borliqdagi o'rni va hrakatini asosiy belgi sifatida qarashni taklif etsa, boshqa birlar obektning ichki xususiyatlaridan, uchinchilari esa ijtimoiy-madaniy borliq ehtiyojlariga javob berish Imkoniyatlaridan, to'rtinchilari obektning tashqi aloqalari va mobilligidan kelib chiqishni taklif qiladilar. Ular bilan bahslashish bizning vazifamizga kirmaydi. Shuning uchun biz Prodyuserlikning ichki xususiyatlari va tashqi aloqalari sintezidan kelib chiqib funksiyalari quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etamiz:

badiiy-ijodiy mahsulot ishlab chiqish funksiyasi;

ijodiy jamoa tuzish va boshqarish funksiyasi;

moliyaviy ishlarni olib borish funksiyasi;

aholining bo'sh vaqtini, manaviy ehtiyojlarini o'rganish va ularni qondirish funksiyasi;

ideologik funktsiya;

targ'ibot va tarbiya funksiyasi.

Mazkur funksiyalari kelgusi boblar va paragraflarda kengroq ochib beriladi. Bu o'rinda biz ushbu funksiyalarning ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar dagi talqinlari bilan qiyoslash bilan cheklanamiz. Bu bizga prodyuserlik faoliyatiga va uning funksiyalariga bo'lgan ilmiy qarashlarni bir tizimga solish, ularning ijtimoiy-madaniy borliq talablariga qanchalik muvofiqligini ochib berish imkonini beradi.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarida prodyuserlik faoliyatining funksiyalarning aniqlashga qaratilgan yondashuvlari talaygina. Masalan, AQSh da qabul qilingan keyinchalik Xalqaro klassifikator sifatida etirof etilgan tizimga ko'ra, prodyuser ijodiy (kreativ), ijrochilik, tizimlik, yordamchilik kasallariga klassifikasiya qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqotchi A.Atanesyan kinoprodyuseri kino mahsuloti ishlab chiqish, firma yoki kompaniya mamuriy xodimi, kinosanati bilimdoni, kinoloyihani baxolovchi ekspert, tomoshabin fikrini o'rganuvchi sosiolog, film ijodiy konsepsiyasini va prokat jarayonlarini belgilovchi, loyixani amalga oshirish uchun moliyaviy imkoniyatlarni qidiruvchi, ssenariy tayyorlashga buyurtma beruvchi, distribyuterlik qiluvchi, prokatchiklar va resipientlar bilan shartnomalar tuzuvchi, ijodiy jamoani shakllantiruvchi va ijodiy o'sish strategiyasini ishlab chiquvchi, film yaratish jaraenini kuzatuvchi va tamdiqlangan rejissyor ssenariyasining bajarilishini taminlash, tayyor film (mahsulot)ni qabul qiluvchi, ijodkorlarning mualliflik va mexnat huquqini taminlovchi, zolimlarni moliyaviy rag'batlantiruvchi kabi vazifalarni bajarishini ko'rsatadi. A.Atanesyan prodyuseri barcha tashkiliy va ijodiy ishlarni yo'lga qo'yuvchi «kinoidora yoki kinostudiya»ga, hatto kinomaxsulotlari ishlab chiquvchi «davlat»ga qiyoslaydi. Malumki, davlat ijtimoiy hayotdagi Yagona suverendir, uning vakolati va imkoniyatlari hech kimga berilmaydi.

A.Atanasyan o'zi yondashuvida prodyuserlik faoliyatining ichki, immanent xususiyatlaridan kelib chiqqan. Natijada u obektning tashqi funksional aloqalarini etibordan chekkada qoldirgan.

A.G.Zanko prodyuserga ijodiy, iqtisodiy, boshqarish va huquqiy xarakterga ega bilimlar, mustahkam ruh, ichki matonat, jismoniy sog'lik zarur. U ko'ra olish, tavakkal qilish, talab qilish, ishonish, taqsimlash, chidash, hisoblash,, tejash, dalda berish, ishontirish, qo'llab-quvvatlash, qulay vaqtni topa olish, ijodiy loyihani samarali nihoyasiga etkazish uchun jamoani etaklashi fazilatlari lozim, deb hisoblaydi. Bu o'rinda tadqiqotchi prodyuserlik faoliyatining ijtimoiy psixologik fazilatlarga urg'u beradi. Natijada prodyuserlik faoliyatiga xos ichki, tashkiliy va ijtimoiy-madaniy funksiyalar tilga olinmaydi. Muallif «Prodyuserlik faoliyatining asoslari» haqida o'quv qo'llanmasi tayyorlagan ekan, bizning fikrimizcha, prodyuserlik faoliyatining funksiyalarini batafsilroq yoritishi zarur edi.

«Prodyuserlik: boshqarish qarorlari» o'quv qo'llanmasida prodyuserlik iqtisodiy va iqtisodiy boshqarish usuli, vositasi sifatida talqin qilinadi va uning funksiyalari iqtisodiyotga taalluqli talab, ehtiyoj, foyda, sarf-xarajat, manfaat, raqobat, investisiya, rag'batlantiruvchi, tavakkal, bankrot, marketing kabilar orqali yoritiladi. Mualliflar prodyuserlikni iqtisodiyotning yo'nalishi sifatida taqdim etadilar. Prodyuserlik soxasidagi tadbirlar, mahsulotlar va ko'rsatiladigan

xizmatlar iqtisodiyot nazariyasi predmeti sifatida qaraladi. O'quv qo'llanmasi boshida mualliflar talabalarda prodyuserlik faoliyati, uning ijtimoiy ahamiyati, iqtisodiyot bilan bog'liq jihatlari haqida zarur nazariy bilimlarni shakllantirish maqsad qilib qo'yganlarini takidlaydilar, biroq matnda diqqat iqtisodiy kategoriyalarni taxlil qilishga qaratilgan. Ularning prodyuserlik faoliyati nima, uning funksiyalari qanday degan savollarga javoblari mavhum bo'lib qolgan. Iqtisodiy yondashuv prodyuserlik faoliyatini anglash uchun zarur, ammo iqtisodiy jihatlari uning bir qirrasini, tomonidir.

Teleprodyuserlik muammolarini o'rgangan T.N.Parsadanova uni televideniening tarkibiy qismi, teleshoulardan tortib to bolalar teledasturlarigacha bo'lgan tashkiliy va ijodiy xarakterga ega jarayon deb hisoblaydi. U prodyuserlikka oid ilmiy-nazariy masalalarni muhokama qilishdan empirik teletajribalarni tahlil qilishni maqul ko'radi. Bu esa muallifning prodyuserlikni teleko'rsatuvlarning tarkibiy qismi sifatida anglashimiz tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotchi teleindustriyada ishlab chiqish prodyuserligi va prodyuser kompaniyalarini o'z ichiga olgan prodyuser xolding kompaniyalari mavjudligini qayd etadi. Ushbu prodyuserlik kompaniyalarini funksiyalari turlicha, ming afsuski tadqiqotchi ularni aniqlashga va ochib berishga intilmaydi. Shunga yaqin endashuvni biz boshqa bir o'quv qo'llanmasida ham uchratamiz. V.I.Siderenko, P.K.Ogurenkova va M.V.Shadrina tomonidan madaniyat va manbai oliy o'quv yurtlari talablari uchun tayyorlangan o'quv qo'llanmasida prodyuserlik kinobiznes barmog'i sifatida taqdim etiladi. Unda takidlanishicha Rossiyadagi prodyuserlik kompaniyalari, firma, studiya, servis markazlari va agentliklar kichik va o'rta biznes subektlari hisoblanadi. Shuning ularning funksiyalari Rossiya Federasiyasida kichik va o'rta biznes subektlari uchun qonunlar tomonidan o'rnatilgan vazifalar orqali aniqlanadi. Bu prodyuserlik faoliyatiga yuridik hodisa sifatida yondashishdir. Ha, prodyuserlik faoliyatini tashkil etish va olib borish maxsus yuridik normalarini taqozo etadi. Biroq bu prodyuserlik faoliyatining umumiy, ijtimoiy-madaniy funksiyalari ham borligini rad qilmaydi. Yuridik normalarga rioya etish barcha tashkilotlar va shaxslar uchun muhim, lekin prodyuserlik faoliyatiga badiiy-ijodiy izlanish ko'proq xosdir.

Prodyuserlik faoliyatiga ijtimoiy-falsafiy yondashuv ham mavjud. Taniqli prodyuser, «Prodyuser chiqyapti» asarining muallifi A.Rodnyanskiy yozadi: «Prodyuserlash – bu hayotga yondashuv. Istagan hayotiy masalani hal etishni prodyuserlik deb atash mumkin... Barcha kechalar, teatrlarda yurishlar, kvartirani tamirlash va dalalar tiklash, bolalarning tug'ilgan kunlarini nishonlash, nikoh to'ylarini etkazish kabilarning barchasi, xuddi filmlar, spektakllar, shou va konsertov kabi prodyuserga muhtojdir. Kim bo'laklari birlashtira, natijani oldindan

ko'ra olsa, kim ularga erishish yo'llarini bilsa, u prodyuserlik. Barchamiz o'zi hayotimizning prodyuserimiz». Bunday ijtimoiy-falsafiy yondashuv prodyuserlikni (aslida yashamoqni) keng talqin qilishga, funksiyalarini esa ushbu strategiyadan keltirib chiqarishga undaydi. Hayot mohiyatiga etmoq esa o'sha Prodyuserlikning bosh funksiyasidir.

Xulosa

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida yuzaga kelgan prodyuserlik faoliyati ijtimoiy-madaniy hayotda ro'y bergan, falsafiy-ekzistensial mohiyatiga ega o'zgartishlarning mahsulidir. Ammo prodyuserlikning paydo bo'lishi etnomadaniy merosga, uning genezisi va yadrosiga borib taqaladi. To'g'ri, tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlarida ular, etnomadaniy ananalardan kelib chiqqan holda, turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, mintaqamiz xalqlari tarixiy-madaniy merosida «korfarmon», «etakchi», «so'z boshlovchi», «to'yboshi», «davraboshi» kabi nomlar bilan atalgan. Shuning uchun prodyuserlikning kelib chiqishi, genezisi, ilmiy etimologik talqinlari o'rganilganida etnomadaniy ananalar esdan chiqarilmasligi kerak.

Prodyuserlikning vatani Amerikadir. XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Amerika ijtimoiy-madaniy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar – fotografiya, kino sanati, televidenie, telegraf, nusxa ko'chirish apparatlari, audiovizual vositalarning paydo bo'lishi madaniyat va manbai asarlarining ommaviylashishini tezlashtirdi. Shaharlar madaniyat va sanat markazlariga, ommaviy madaniyatni targ'ib etuvchi makonlarga aylandi. Shaharlarda kinoteatrlar, konsert tomoshalari uyushtiruvchi maskanlar, istirohat bog'lari, klublar paydo bo'ldi. Gollivud kinoindustriyasining paydo bo'lishi bilan filmlarni ko'paytirish, ommaga etkazish, kinomaxsulotlari sotish, foyda olish imkoniyati shakllandi. Prodyuserlik Amerikadagi XX asrning 20-30 yillarida Evropa kontinentiga tarqaldi. Amerikaga demokratiya, biznes va pragmatizm Evropadagi ishbilarmonlar, sanatkorlar, tadbirkorlarga maqul keldi, natijada prodyuserlik biznes bilan hamkorlik qilib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning muhim sohasiga aylandi.

Prodyuserlikning ijtimoiy-madaniy faoliyat turi ekani nafaqat uning ijtimoiy-madaniy jarayonlar, shuningdek, inson faoliyatining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Inson faoliyatini ijtimoiy-madaniy borliqqa qaratganida u tashqi zaruratning deterministik tasiri ostida tashkil etish, uyushtirish, pozitiv natijaga yoki samaraga erishishni ko'zlaydi. Bular aynan prodyuserga zarur xususiyatlardir. Shuning uchun prodyuserlik faoliyatining ijodiy xarakteri uning inson faoliyati, ushbu faoliyatning ijtimoiy-madaniy boyliklar yaratishga qaratilgani bilan ifodalanadi. Prodyuserlik «o'zi o'zi uchun»,

«sof faoliyat» emas, u nima uchun va kim uchundir. Bu undagi ijtimoiy deterministik omillar tasirida amalga oshiriladigan, jamiyat madaniy taraqqiyotiga qaratilgan faoliyat ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Blauberger I.V., Yudin E.G. Stanovlenie i suщnost sistemnogo podxoda. – Moskva: Nauka, 1973; Bertalanfi L. fon. Obщaya teoriya sistem: obzor problem i rezultatov. – Moskva: Nauka, 1979; Kagan M.S. Chelovecheskaya deyatel'nost (opыt sistemnogo analiza). – Moskva: Politizdat, 1994; Surmin Yu.P. Teoriya sistem i sistemnyy analiz: uchebnoe posobie. – Kiev: MAUP, 2003.
2. Kagan M.S. Chelovecheskaya deyatel'nost (opыt sistemnogo analiza). – Moskva: Politizdat, 1994. – S. 11-12.
3. Atanesyan A. Kratkaya instruksiya dlya nachinayushchego prodyusera. – 2-e izd. – Moskva: LOKID-PRESS, 2007. – S. 7-8.
4. Zanko A.G. Osnovy prodyuserskoy deyatel'nosti. – Minsk: Institut sovremennykh znaniy im. A.M. Shirokova, 2019. – S. 6-7.
5. Prodyuserstvo: upravlencheskie resheniya / pod red. V.S. Malisheva, Yu.V. Krilovskogo. – Moskva: Yuniti-Dana, 2012. – S. 7-13.
6. Parsadanova T.N. Prodyussirovanie televizionnogo kontenta: aktualnyye problemy. – Moskva: Yuniti-Dana, 2020.
7. Rodnyanskiy A. Vыходит prodyuser. – Moskva: Mann, Ivanov i Ferber (MIF), 2016. – S. 8-9.